ovul toponimi Amudaryo va Qo‘ng‘irot tumanlarida uchraydi. Masalan, Qo‘ng‘irot tumanidagi qishloqning nomlanish sababi, ilgari odamlar bu yerga ho‘kiz aravada ko‘chib kelgan [8;89-b.].

Xulosa va takliflar. Zootoponimlar xalq iste’molida bo‘lganligi sababli, ularning ma’nosi ko‘pchilikka tushunarli bo‘ladi. Shu bilan birga, ularni boshqa toponimlardan ajratish oson emas. Birinchidan, tarkibida hayvon, qush nomlari bo‘lgan joy nomlarini zootoponim deb qarash to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Chunki zootoponimlarni farqlashning qiyinchiligi shundaki, ayrim qabila vakillari qandaydir hayvonni karomatli deb, uni muqaddas bilishgan. Qavmga o‘sha hayvonning nomini bergan. Bular “totem” nomlar deb qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, hayvon nomlaridan hosil bo‘lgan toponimlar onomastikaning muayyan leksik qatlamini tashkil etib, hududning hayvonot dunyosi, aholining etnomadaniy dunyoqarashi va tarixiy hayotidan ma’lumot beradi. Ularni o‘rganish joy nomlarining semantik boyligini kashf etib, til, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur anglashga imkon beradi. XIX asr qoraqalpoq shoirlari asarlari tilida bunday nomlar kam uchraydigan bo‘lsa ham, Qoraqalpog‘iston toponimiyasi uchun ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бияров Б. Қазақ топонимдерінің типтік үлгілері. Астана, Ш.Шаяхметов атындағы Тілдерді дамытудың республикалық үйлестіру-әдістемелік орталығы, 2013, 460-бет.

(2). Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. Алма-Ата, “Наука”, 1974, 275 с.

(3). Қойшыбаев Е. Қазақстанның жер-су аттары сөздігі. Алматы, “Мектеп”, 1985, 256-бет.

(4). Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005, 239-бет.

(5). Мәдиева Г.Б., Иманбердиева С.Қ. Ономастика: Зерттеу мәселелері. Астана, «1С-Сервис» ЖШС, 2005, 163-бет.

(6). Молчанова О.Т. Структурные типы тюркских топонимов Горного Алтая. Саратов, Саратовского университета, 1982, 256 с.

(7). Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. Қўқон, 2005, 90-бет.

(8). Пахратдинов Қ., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. Нөкис, «Bilim», 2025, 128-бет.

Muxammadiyeva Farangis G‘iyasiddin qizi (Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti;
farangis0104@gmail.com; ORCID ID 0009-0008-1863-5676)

PAOLO BACHIGALUPINING “SAMARADORLIK” VA NORMUROD NORQOBILOVNING “YETIM QOLGAN GULLAR” HIKOYALARINING QIYOSIY-EKOKRITIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Paolo Bachigalupining “Samaradorlik” (Efficiency) va Normurod Norqobilovning “Yetim qolgan gullar” hikoyalari qiyosiy ekokritik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki asarda ekologik ong, ekologik madaniyat hamda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy ifodasini aniqlashdan iborat. Norqobilov hikoyasida tabiatga nisbatan befarqlik, individual mas’uliyatsizlik va jamoaviy ekologik ongning pastligi atrof-muhitning yemirilishiga olib keluvchi omillar sifatida tasvirlanadi. Xususan, atirgullar obrazi, chiqindilar va garmsel timsoli orqali insonning tabiatga munosabati axloqiy muammo sifatida talqin etiladi. Bachigalupining “Samaradorlik” hikoyasida esa ekologik ong individual xatti-harakat bilan cheklanmay, energiya mustaqilligi, oziq-ovqat xavfsizligi, jamoaviy farovonlik va ijtimoiy hamjihatlik bilan bog‘liq tizimli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijasida ikki muallif ekologik muammoni turlicha badiiy modellashtirgan bo‘lsa-da, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi jamiyat hayoti uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishin aniqlanadi. Maqolada, shuningdek, ekologik mas’uliyatning individual va jamoaviy shakllari qiyoslanib, ikki asardagi ekologik tafakkurning o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: ekokritika, ekologik ong, ekologik madaniyat, ilmiy fantastika, antropotsentrizm, tabiat, samaradorlik.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОКРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ «ЭФФЕКТИВНОСТЬ» ПАОЛО БАДЖИГАЛУПИ И «СИРОТСКИЕ ЦВЕТЫ» НОРМУРОДА НОРКОБИЛОВА

Аннотация. *В статье проводится сравнительный экокритический анализ рассказов Паоло Бачигалупи «Эффективность» (Efficiency) и Нормурода Норкобилова «Сиротские цветы» (Yetim qolgan gullar). Основная цель исследования заключается в выявлении художественного воплощения экологического сознания, экологической культуры, а также взаимоотношений между человеком и природой в обоих произведениях. В рассказе Норкобилова равнодушие к природе, индивидуальная безответственность и низкий уровень коллективного экологического сознания представлены как*

факторы, способствующие деградации окружающей среды. В частности, посредством образов роз, отходов и гармселя отношение человека к природе интерпретируется как нравственно-этическая проблема. В рассказе Бачигалупи «Эффективность» экологическое сознание, напротив, не ограничивается индивидуальным поведением, а предстает как системное явление, тесно связанное с энергетической независимостью, продовольственной безопасностью, общественным благополучием и социальной сплочённостью. Результаты исследования показывают, что, несмотря на различия в художественном моделировании экологической проблематики, оба автора акцентируют серьёзные последствия нарушения равновесия между человеком и природой для жизни общества. В статье также сопоставляются индивидуальные и коллективные формы экологической ответственности, выявляются сходства и различия экологического мышления, представленного в двух произведениях.

Ключевые слова: *экокритика, экологическое сознание, экологическая культура, научная фантастика, антропоцентризм, природа, эффективность.*

COMPARATIVE ECOCRITICAL ANALYSIS OF STORIES EFFICIENCY BY PAOLO BACIGALUPI AND ORPHAN FLOWERS BY NORMUROD NORQOBILOV

Annotation. *This article presents a comparative ecocritical analysis of Paolo Bacigalupi's Efficiency and Uzbek writer Normurod Norqobilov's Orphan Flowers (Yetim qolgan gullar). The study aims to examine the literary representation of ecological consciousness, environmental culture, and the relationship between humans and nature in the two works. In Norqobilov's story, indifference toward nature, individual irresponsibility, and a low level of collective ecological awareness are presented as factors contributing to environmental degradation. In particular, the images of roses, garbage, and the wind function as important elements through which the relationship between humans and nature is interpreted as an ethical problem. In Bacigalupi's Efficiency, ecological consciousness is not limited to individual behavior but is presented as a systemic phenomenon closely connected with energy independence, food security, community prosperity, and social connectedness. The study demonstrates that although the two authors employ different literary models to portray environmental problems, both emphasize the serious consequences of disrupting the balance between humans and nature. The article also compares individual and collective forms of environmental responsibility and identifies the similarities and differences in the ecological perspectives represented in the two works.*

Key words*: ecocriticism, environmental consciousness, ecological culture, science fiction, anthropocentrism, nature, efficiency.*

Kirish. Bugungi kunda global ekologik inqiroz insoniyatdan tabiatga bo'lgan munosabatni butunlay qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Adabiyot har doim ijtimoiy-ekologik jarayonlarni aks ettiruvchi va insonni tabiatni ekspluatatsiya qilishdan uning oldidagi mas'uliyatni his qilishga undovchi muhim vosita bo'lib kelgan. Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti vakili Normurod Norqobilovning "Yetim qolgan gullar" hamda Amerika ilmiy-fantastik adabiyoti namunasi Paolo Bachigalupining "Samaradorlik" (Efficiency) hikoyalari ekokritik nuqtayi nazardan qiyoslanadi. Tadqiqot markazida ekologik xulq-atvordagi jiddiy paradoks turadi: bor narsaning qadriga yetmaydigan, ekologik ongi past an'anaviy jamiyat va resurslar tugagan sharoitda o'ta yuqori ekologik intizom shakllantirgan futuristik jamiyat. Norqobilov moddiy manfaat ortidan quvib, go'zallik va tabiat kushondasiga aylangan insonlar fojiasini ko'rsatadi. Bacigalupi esa har bir tomchi suv va resurs hisobli bo'lgan, ekologik madaniyat tabiatga bo'lgan muhabbatdan emas, balki tirik qolish majburiyatidan tug'ilgan dunyoni loyihalashtiradi. Ushbu ikki matnni yonma-yon qo'yish orqali ekologik befarqlik va ekologik menejment tushunchalarining inson ma'naviyati bilan bog'liqligini o'rganish maqsad qilingan.

Adabiyotlar tahlili. Ekokritika yo'nalishi adabiyotshunoslikda nisbatan yangi paradigmalar qatoriga kirsa-da, bugungi kunda inson va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda yetakchi metodologiyaga aylandi. Glotfelty va Fromm (1996) o'zlarining fundamental tadqiqotlarida ekokritikani adabiyot va jismoniy muhit o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi fan sifatida belgilab bergan edi [3]. Ushbu nazariya doirasida, keyinchalik, Buell (2005) tomonidan ekologik ong tushunchasi tizimlashtirildi [2]. U ekologik madaniyatni faqat tabiat tasviri bilan emas, balki insonning tabiat oldidagi mas'uliyati va global inqirozlarni his qilish darajasi bilan o'lchashni taklif qildi. G'arb ilmiy-fantastik adabiyotida, xususan, Paolo Bachigalupi ijodida bu konsepsiya o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Otto (2012) o'zining ilmiy-fantastik ekokritikaga bag'ishlangan ishlarida ta'kidlashicha, Bacigalupi kabi mualliflar "to'q ekologiya" (dark ecology) prinsiplariga tayanadi [8]. Ya'ni, uning asarlaridagi yuqori ekologik madaniyat tabiatga bo'lgan sof muhabbatdan emas, balki resurslar taqchilligi sharoitida tirik qolishning yagona mexanizmi sifatidagi pragmatik

samaradorlikdan kelib chiqadi. Murphey (2013) esa bunday jamiyatlarni "majburiy barqarorlik jamiyati" deb atab, unda inson tizim qurboniga va qat'iy hisob-kitob qilishga to'g'ri kelishini isbotlaydi [5].

O'zbek adabiyotshunosligida ekologik muammolarning badiiy ifodasi, asosan, realistik proza kontekstida o'rganib kelingan. Sanayev (2018) zamonaviy o'zbek qissachiligi va hikoyachiligida ekologik tafakkur masalasini tadqiq qilar ekan, Normurod Norqobilov ijodiga alohida to'xtalib o'tadi. Uning qayd etishicha, "Norqobilov asarlarida tabiat shunchaki fon emas, balki inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazuvchi faol subyekt" hisoblanadi. Shuningdek, Karimov (2021) o'tish davri o'zbek jamiyatidagi transformatsiyalarni tahlil qilib, "moddiy manfaatdorlik va iste'molchilik psixologiyasining kuchayishi an'anaviy ekologik madaniyatning inqiroziga (ekologik ongi pastlikka)" olib kelganini yozadi [4]. Uning fikricha, insonlarning tabiat ne'matlariga nisbatan loqaydligi va befarqligi ma'naviy qashshoqlikning eng oliy nuqtasidir. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, G'arb adabiyotshunosligida ekologik madaniyat ko'proq texnogen va distopik kelajak prizmasidan o'rganilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotshunosligida u, asosan, ma'naviy-axloqiy muammo sifatida qaraladi. Biroq Norqobilovning realistik va Bachigalupining futuristik jamiyatlarini ekologik ong darajasi bo'yicha to'g'ridan to'g'ri qiyosiy tadqiq etish masalasi shu vaqtgacha maxsus o'rganilmagan.

Asosiy qism. Paolo Bachigalupining "Efficiency" hikoyasidagi voqealar texnologik jihatdan yuqori darajada rivojlangan, ammo tabiiy resurslari qat'iy cheklangan futuristik Chikago shahrida bo'lib o'tadi. Asar bosh qahramoni Jeyms Blek telefoniga ulangan Lyusi nomli sun'iy intellekt yordamida shahardagi eng baland va strategik bino hisoblangan Uillis (Willis Tower) binosiga ko'tariladi. Uning asosiy vazifasi hukumat uchun xizmat qiladigan GLA (Great Lakes Amalgamated) korporatsiyasining eng katta energiya saqlash ombori loyihasida elektr ta'minotini mukammal tarzda sozlashdan iborat. Bu yerda ekologik madaniyatning o'ta yuqori darajasi o'z-o'zidan emas, balki sun'iy intellekt Lyusi tomonidan hisoblab chiqiladigan qat'iy matematik samaradorlik evaziga ta'minlanadi. Jeyms va u mansub bo'lgan jamiyat uchun har bir kilovatt energiya tirik qolish sharti bo'lib, bu tizim insondan har qanday hissiyot yoki xatolikni chetga surib, robot kabi samarali ishlashni talab qiladi.

Biroq bu majburiy ekologik intizom orqasidagi ma'naviy inqiroz Jeyms va uning otasi o'rtasidagi ziddiyatda yaqqol namoyon bo'ladi. Otasi o'g'lining bunday qattiq nazorat ostidagi hukumat tizimiga va GLA korporatsiyasiga ishlashini mutlaqo istamaydi, chunki u totalitar nazoratga aylanib ulgurgan ushbu ekologik boshqaruvga ishonmaydi. Buni uning o'g'liga yatgan ushbu gaplaridan ham bilsa bo'ladi: "Sen o'tmishda nima bo'lganini bilmaysan. Ular to'lashga qurbi yetmagan odamlarni elektr tarmoqlarini uzib qo'yishgan. Bechoralar shunchaki elektrga pul to'lashnimi yo ijara pulini vaqtida berishnimi, qon bosimi yo astmaga davolanish uchun pul yetkazishnimi bilmay, uddasidan chiqolay qolgan yaxshi odamlar edilar. O'shanda hukumat (GLA) ularga, umuman, qayg'urmagandi. Endi qayg'uradigan bo'lib qoldimi?" [1]. Shu sababdan ham Jeymsning otasi Every Blek Hudelektrik kompaniaysiga asos soladi va bu orqali Chikago janubida istiqomat qiladigan aholining deyarli yarmi o'z bepul elektr energiyasiga, elektr-muhandislik ta'lim dasturiga va bepul mahalla avtobuslariga ega bo'ladilar.

Normurod Norqobilovning "Yetim qolgan gullar" hikoyasida ekologik muammo inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi orqali yoritiladi. Yozuvchi ekologik inqirozni faqat tabiiy muhitning yemirilishi sifatida emas, balki jamiyat ma'naviyati va insonlarning tabiatga munosabatini ko'rsatuvchi mezon sifatida tasvirlaydi. Hikoyada cho'l hududida barpo etilgan yangi shaharcha yoz mavsumining jazirama kunlarida tasvirlanib, tabiiy sharoitning og'irligi garmsel obrazi orqali kuchaytiriladi. Garmselning kuchli esishi natijasida shaharchadagi yashil o'simliklar sariq tusga kiradi. Biroq ana shunday noqulay tabiiy sharoitda ham qip-qizil atirgullarning saqlanib qolishi o'quvchi e'tiborini tortadi.

Atirgullarning yashab qolishi, avvalo, insonning tabiatga munosabati bilan bog'liq. Shaharchaga yangi ko'chib kelgan ayol qizchasi bilan birgalikda atirgullarga har kuni suv quyib, ularni parvarish qiladi. Bu holat hikoyadagi boshqa aholining tabiatga bo'lgan munosabati bilan keskin kontrast hosil qiladi. Shaharcha aholisi o'simlik yetishtirishga deyarli ehtiyoj sezmaydi, tabiatni asrash yoki ko'kalamzorlashtirishga intilish ularda kuzatilmaydi. Shu sababli atirgul oddiy gul emas, balki tabiatga ongli va mehrli munosabatning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Uning qip-qizil rangi esa hayot va go'zallikning og'ir ekologik sharoitda ham saqlanib qolish imkoniyatini ifodalaydi.

Hikoyada ekologik ongning pastligi, ayniqsa, insonlarning chiqindilarga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Muallif garmsel obrazini jonlantirib, uni insonlarning ekologik xatti-harakatlarini kuzatuvchi o'ziga xos badiiy obrazga aylantiradi. Jumladan, hikoyada: "to'rtinchi qavatdan uloqtirilgan chiqindilar garimsel qanotiga ilashdi. U bir yulqinib, ularni chor atrofga sochib yubordi" [7;34-b.]. Ushbu epizodda chiqindining ko'p qavatli uydan tashqariga uloqtirilishi shaharcha aholisining ekologik mas'uli-

yatsizligini ko‘rsatadi. Chiqindi garmsel qanotiga ilashib, yana atrofga sochilishi esa ramziy jihatdan inson tomonidan tabiatga berilgan zarar yana inson yashayotgan muhitga qaytishini anglatadi. Shunday qilib, garimsel oddiy tabiat hodisasi bo‘lishdan tashqari, tabiatning inson faoliyatiga javobini ifodalovchi badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Atirgulzor ustiga tashlangan axlat uyumi esa ekologik befarqlikning yanada yorqin ko‘rinishidir. Muhimi, axlatni atirgullar ustiga tashlagan qo‘shnining harakatida ataylab zarar yetkazish maqsadi yo‘q. U buni oddiygina erinchoqlik va loqaydlik sabab amalga oshiradi. Uning “Panada birov ko‘rmaydi” degan fikri hikoyadagi ekologik muammoning mohiyatini ochib beruvchi muhim detal hisoblanadi [7;35-b.]. Mazkur jumlada ekologik mas’uliyatning yo‘qligi “hech kim ko‘rmaydi” degan qarash bilan asoslanadi. Demak, inson tabiatga nisbatan mas’uliyatni tashqi nazorat mavjud bo‘lgan taqdirdagina emas, balki ichki axloqiy qadriyat sifatida his qilishi lozim. Norqobilov esa aynan shu ichki mas’uliyatning yo‘qligini tanqid ostiga oladi.

Hikoyadagi ayol obrazi ana shu ekologik befarqlikka qarshi qo‘yilgan. U qizchasi bilan atirgullarni muntazam parvarish qilib, tabiat bilan o‘ziga xos mehr-muhabbat munosabatini shakllantiradi. Biroq atrofidagi odamlarning ekologik madaniyati pastligi sababli u bu muhitda yashashni davom ettira olmaydi va shaharchani butunlay tark etadi. Natijada atirgullar “yetim” qoladi. Asarning nomi ham shu nuqtayi nazardan, ramziy mazmun kasb etadi. Yetim qolgan gullar nafaqat parvarishlovchisidan ayrilgan o‘simliklarni, balki inson tomonidan e’tiborsiz qoldirilgan tabiatni ham ifodalaydi. Hikoyaning yakuniy epizodida ekologik befarqlik yanada keskinlashtiriladi. Atirgullar tepasida turgan yigit go‘yo gullarga mahliyo bo‘lgandek tasvirlanadi, biroq uning nigohi gullarda emas, axlatda bo‘ladi. U o‘z chelagidagi axlatni uzoqdagi chiqindixonaga olib borishga erinadi va uni gullar ustiga to‘kishga hozirlanadi. Ushbu detal orqali yozuvchi ekologik muammoning individual darajadagi ko‘rinishini umumlashtiradi: inson uchun bir necha qadam yurib chiqindini belgilangan joyga tashlash ham ortiqcha mehnatga aylanadi, natijada tabiat uning qulayligi va erinchoqligi qurboniga aylanadi.

Shu vaziyatda gaimselning yigitning harakatidan “zavqlanishi” ham alohida e’tiborga loyiq. Bu holat garimsel obrazining personifikatsiyasini yanada kuchaytiradi. Tabiat go‘yo insonning o‘ziga qarshi harakatini kuzatib, uning ekologik mas’uliyatsizligidan “g‘alaba” topadi. Demak, hikoyada ekologik inqirozning asosiy manbayi faqat garimsel yoki cho‘lning og‘ir tabiiy sharoiti emas. Asosiy muammo insonning tabiatga bo‘lgan loqayd munosabatidadir.

Shunday qilib, “Yetim qolgan gullar”da atirgul, axlat va garmsel obrazlari o‘zaro bog‘liq holda ekologik muammoning turli qirralarini ochadi. Atirgul – hayot, go‘zallik va ekologik mas’uliyatni, axlat – beparvolik va loqaydlikni, garmsel esa insonning tabiatga qilgan munosabatining ramziy javobini ifodalaydi. Norqobilov shu obrazlar orqali ekologik muammoni oddiy tabiat muhofazasi masalasidan chiqarib, uni insonning axloqiy va ma’naviy mas’uliyati bilan bog‘laydi. Shu jihatdan, hikoya ekologik ongni shakllantirishda adabiyotning tarbiyaviy va ijtimoiy imkoniyatlarini ham namoyon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Normurod Norqobilovning “Yetim qolgan gullar” hikoyasi va Paolo Bachigalupining “Efficiency” asaridagi ekologik ong hamda inson-tabiat munosabatlarini o‘rganishda qiyosiy-tipologik, ekokritik va interpretativ-tahliliy metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod orqali ikki asarda ekologik inqirozning yuzaga kelish sabablari, insonning tabiiy resurslarga munosabati va ekologik mas’uliyat masalalaridagi o‘xshashlik va farqlar aniqlandi. Ekokritik yondashuv asosida tabiatning badiiy funksiyasi, antropotsentrizm, ekologik ong va ekologik madaniyatning matndagi ifodasi tahlil qilindi. Interpretativ-tahliliy metod yordamida qahramonlarning tabiatga munosabati, muallif pozitsiyasi, ekologik konfliktlar va badiiy detallar tahlil qilindi. Shuningdek, asarlarning janriy va madaniy konteksti hisobga olinib, Norqobilovning realistik tasviri bilan Bachigalupining distopik-ilmiy-fantastik modeli qiyoslandi. Tahlil jarayonida “inson–tabiat”, “shaxs–jamiyat” va “ehtiyoj–resurs” munosabatlari asosiy analitik kategoriyalar sifatida belgilandi.

Natijalar va muhokama. Paolo Bacigalupining “Samaradorlik” hikoyasida ekologik ong insonning tabiatni asrashga bo‘lgan shaxsiy munosabatidan tashqari, butun jamiyat hayotini tashkil etuvchi tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Agar Normurod Norqobilovning “Yetim qolgan gullar” hikoyasida ekologik befarqlik, chiqindiga mas’uliyatsiz munosabat va tabiatni e’tiborsiz qoldirish ustun bo‘lsa, Bachigalupi asarida buning aksi – ekologik mas’uliyat, resurslardan oqilona foydalanish va jamoaviy hamkorlik asosida shakllangan hayot tarzi tasvirlanadi.

Hikoyada Jamesning otasi o‘z kasbining mohiyatini “odamlarga o‘z kuch-qudratiga, o‘z hayotiga egalik qilishga yordam berish” deb ta’riflaydi [9;8-b.]. Mazkur fikr qahramon faoliyatining faqat energetika bilan bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Bu yerda energiya mustaqilligi insonning o‘z hayoti ustidan nazoratga

ega bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Ya’ni, ekologik barqarorlik jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligining muhim sharti sifatida talqin qilinadi.

Jamesning otasi ilgari suradigan “energetik mustaqillik”, “oziq-ovqat xavfsizligi”, “jamiyat farovonligi” va “o‘zaro bog‘liqlik” g‘oyalari ham hikoyaning ekologik konsepsiyasini ochib beradi. Ayniqsa, uning “bir-biridan uzilib ketgan emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘langan mahallalar” haqidagi qarashi [1;8-b.] ekologik muammoning ijtimoiy jihatini ko‘rsatadi. Muallif uchun ekologik barqarorlik faqat alohida uy yoki shaxsning harakati bilan ta’minlanmaydi; u jamoaning hamkorligi va o‘zaro mas’uliyatiga tayanadi.

Bu tamoyil Jamesning otasi tomonidan tashkil etiladigan workshoplarda amaliy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Turli mahallalardan odamlar yig‘ilib, ularga energiya, oziq-ovqat yetishtirish va resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha bilimlar beriladi. Muhimi, ishtirokchilar workshopdan olgan bilimlarini o‘z mahallalariga olib borib, kundalik hayotda qo‘llaydilar. Shu tariqa, ekologik bilim individual tajribadan jamoaviy amaliyotga aylanadi. Bu jihat Bacigalupi tasvirlagan jamiyatda ekologik madaniyatning shakllanganligini ko‘rsatadi.

Hikoyadagi uylarning tomlariga o‘rnatilgan quyosh panellari ham ushbu ekologik madaniyatning amaliy ifodasidir. Aholi energiyani tashqi manbalarga to‘liq bog‘lab qo‘ymasdan, quyosh energiyasidan foydalanadi. Bundan tashqari, quyosh panellari o‘rnatilgan maxsus konstruksiyalar ostida bog‘lar tashkil etilgani energetik mustaqillik va oziq-ovqat xavfsizligining bir makonda uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, tom oddiy yashash binosining bir qismi bo‘lib qolmay, energiya ishlab chiqarish va oziq-ovqat yetishtirish imkonini beruvchi ekologik makonga aylanadi.

Mazkur holatni Norqobilovning *“Yetim qolgan gullar”* hikoyasidagi vaziyat bilan qiyoslaganda, ikki asardagi ekologik ongning mutlaqo qarama-qarshi modellari ko‘zga tashlanadi. Norqobilov tasvirlagan shaharchada odamlar o‘simliklarni parvarish qilmaydi, chiqindilarni belgilangan joyga olib borishga erinadi va “Pana-da birov ko‘rmaydi” (7;35-b.) degan qarash bilan o‘z harakatlarini oqlaydi. Bachigalupida esa insonlar aksincha, o‘z yashash muhitini yaxshilash uchun bilim almashadi, birgalikda harakat qiladi va mavjud resurslardan samarali foydalanadi.

Demak, ikki asar o‘rtasidagi asosiy farq ekologik muammoga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Norqobilovda ekologik inqiroz befarqlikdan boshlansa, Bachigalupida ekologik barqarorlik ongli hamkorlikdan boshlanadi. Birida atirgullarni parvarish qiladigan ayol umumiy loqayd muhitda yolg‘iz qoladi; ikkinchisida esa ekologik bilim bir mahalladan boshqasiga tarqalib, jamoaviy harakatga aylanadi. Shu jihatdan, Bachigalupi ekologik ongni nafaqat tabiatga ehtiyotkor munosabat, balki jamiyat a’zolarini bir-lashtiruvchi ijtimoiy qadriyat sifatida talqin qiladi.

Xulosa. Normurod Norqobilovning "Yetim qolgan gullar" hikoyasida esa ushbu holatning mutlaqo teskarisi, ya’ni, ekologik nazorat va tartib umuman yo‘q bo‘lgan an’anaviy jamiyat tasvirlanadi. Agar Chikagoda GLA va Lyusi inson xatti-harakatini har bir tomchi resurs uchun nazorat qilsa, Norqobilov asarida davlat idoralari yoki jamiyat tomonidan tabiatni asrash bo‘yicha hech qanday tizimli mexanizm mavjud emas. Odamlarning ekologik ongi pastligi tufayli go‘zal tabiat va noyob gullar shunchaki shaxsiy moddiy manfaat, ochko‘zlik yo‘lida bemalol vayron qilinadi. Har ikki asar yonma-yon qo‘yilganda jiddiy ekokritik paradoks yuzaga chiqadi: Norqobilov jamiyatida erkinlik bor, lekin ma’naviy-ekologik mas’uliyat yo‘qligi sababli tabiat o‘ldirilmoqda; Bachigalupi jamiyatida esa tabiat (resurslar) yuqori texnologiya bilan asralmoqda, ammo tizimning qattiq bosimi ostida insonning ruhiy olami va erkinligi "yetim" qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bacigalupi P. Efficiency. In Pump six and other stories Night Shade Books. 2010, p. 115–132.

(2). Buell L. The future of environmental criticism: Environmental crisis and literary imagination. Blackwell Publishing. 2005, p. 45–73.

(3). Glotfelty C., Fromm H. (Eds.). The ecocriticism reader: Landmarks in literary ecology. University of Georgia Press. 2010, p. 145–183.

(4). Karimov B. Yangi davr o‘zbek adabiyotida ekologik tafakkur va ma’naviyat muammolari. “Mumtoz so‘z”, 2021, p. 57–63.

(5). Murphy P.D. Transversal ecocritical praises: Sustaining across genres and cultures. Lexington Books. 2013, p. 34–56.

(6). Murphy Patrick D. "In Paolo Bacigalupi’s Environmental Science Fiction, Immoral and Criminal are not Synonymous." The Routledge Handbook of Crime Fiction and Ecology. Routledge. 2023, p. 228–238.

(7). Norqobilov N. Yetim qolgan gular. Hikoyalar va qissalar. “Sharq”, 2015.

(8). Otto E.C. Green speculations: Science fiction and biopolitics. Ohio State University Press. 2012.

(9). Robinson K.S., Bacigalupi P., Foster S., Hudson A.D., Hanson-Kahn M., Barrage R., Burt B. No more fairy tales: Stories to save our planet. Habitat Press. 2022, p. 6–20.
(10). Sanayev M. Zamonaviy o‘zbek prozasida tabiat va inson konsepsiyasi. “Fan”, 2018, p. 78–95.

Burxonova Gulmira Olimjon qizi (Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat Chet tillari instituti tadqiqotchisi; burxonovagulmira795@gmail.com)

YOSH SEMALARINING SOTSIOMADANIY KONTEKSTDA PRAGMATIK IFODALANISHI

Annotatsiya. *Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yosh tushunchasini ifodalovchi til birliklari faqat biologik yoki xronologik belgini anglatib qolmay, balki jamiyatdagi ijtimoiy mavqe, avlodlararo munosabat, hurmat, yaqinlik, masofa, hokimiyat va baholash kabi qator pragmatik ma’nolarni ham yuzaga chiqaradi. Maqolaning maqsadi – o‘zbek va ingliz tillarida yosh semalarining sotsiomadaniy kontekstga bog‘liq holda pragmatik jihatdan qanday faollashishini aniqlash va ularni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda lingvistik kuzatish, komponentli tahlil, kontekstual va qiyosiy-chog‘ishtirma metodlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida yosh semalari, asosan, murojaat shakllari, qarindoshlik terminlari va fe’l shakllari orqali ifodalanib, ular hurmat, masofa va hokimiyat munosabatlarini yuzaga chiqarsa, ingliz tilida bu ma’nolar, asosan, leksik-pragmatik vositalar, modal konstruksiyalar va bilvosita nutq aktlari orqali reallashadi. Xulosa qilib aytganda, yosh semalari ikkala tilda ham sotsiomadaniy jihatdan muhim pragmatik yuklamaga ega bo‘lib, ular milliy-madaniy va ijtimoiy me’yorlarga muvofiq tarzda namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *yosh semasi, pragmatika, sotsiomadaniy kontekst, murojaat shakli, ijtimoiy mavqe, baholash, nutq etiketi, o‘zbek tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil.*

Бурхонова Гульмира Олимжон кизи (исследователь Наманганского государственного института иностранных языков имени Исхокхона Ибрата)

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ СЕМ ВОЗРАСТА В СОЦИОКУЛЬТУРНОМ КОНТЕКСТЕ

Аннотация. *Актуальность исследования заключается в том, что языковые единицы, выражающие понятие возраста, не только обозначают биологический или хронологический признак, но и актуализируют ряд прагматических значений, таких как социальный статус, межпоколенческие отношения, уважение, близость, дистанция, власть и оценка. Цель статьи – определить, каким образом возрастные семы прагматически активизируются в зависимости от социокультурного контекста в узбекском и английском языках, и провести их сопоставительный анализ. В исследовании использовались методы лингвистического наблюдения, компонентного анализа, контекстуального и сопоставительно-типологического анализа. Результаты показывают, что в узбекском языке возрастные семы выражаются преимущественно через формы обращения, термины родства и глагольные формы, актуализируя отношения уважения, дистанции и власти; в английском языке эти значения реализуются в основном через лексико-прагматические средства, модальные конструкции и косвенные речевые акты. В заключение отмечается, что возрастные семы в обоих языках несут значительную социокультурную прагматическую нагрузку и проявляются в соответствии с национально-культурными и социальными нормами.*

Ключевые слова: *возрастная сема, прагматика, социокультурный контекст, форма обращения, социальный статус, оценка, речевой этикет, узбекский язык, английский язык, сопоставительный анализ.*

Burxonova Gulmira Olimjon qizi (Researcher at Is’hoqhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages)

PRAGMATIC REALIZATION OF AGE SEMES IN THE SOCIOCULTURAL CONTEXT

Annotation. *The relevance of the study lies in the fact that linguistic units expressing the concept of age do not merely denote a biological or chronological characteristic but also activate a range of pragmatic meanings such as social status, intergenerational relations, respect, intimacy, distance, power, and evaluation. The aim of the article is to determine how age semes are pragmatically activated depending on the sociocultural context in Uzbek and English, and to conduct a comparative analysis. The research employs methods of linguistic observation, componential analysis, contextual analysis, and comparative-typological analysis. The results indicate that in Uzbek, age semes are mainly expressed through address forms, kinship terms, and verb forms, actualizing relationships of respect, distance, and power; in English, these meanings are primarily realized through lexico-pragmatic devices, modal constructions, and indirect*